

FUQAROLIK PROTSESSIDA MUTAXASSIS VA EKSPERTLARNING ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Ibragimova Rayxon Shodmon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Magistratura va sirtqi ta’lim” fakulteti

“Biznes huquqi” yo‘nalishi

magistratura bosqichi talabasi.

E-mail: rayxonibragimova135@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda fuqarolik sud ishlarini ko‘rib chiqish jarayonida mutaxassis va ekspertlarning ishtiroki orqali odil sudlovni ta‘minlash masalasi tahlil etilgan. Sudning adolatli, qonuniy va asosli qaror qabul qilishi uchun zarur bo‘lgan maxsus bilimlar, ularning manbalari hamda ushbu bilimlarni sudga etkazishda ekspert va mutaxassislarning roli ochib berilgan. Mutaxassis va ekspertlarning Fuqarolik protsessual kodeksdagi protsessual maqomi, ularning vazifalari, sud faoliyatiga ta’siri, xulosalarning huquqiy ahamiyati o‘rganilgan. Shuningdek, amaldagi sud-amaliyotida mavjud bo‘lgan tizimli muammolar — ekspert xulosasining sifatsizligi, malaka talabi, mustaqillik yetishmovchiligi kabi holatlar tahlil qilinib, ularni bartaraf etishga doir aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ekspertiza, mutaxassis, maxsus bilimlar, protsessual majburiyatlar, sud-huquq islohoti.

Bugungi kunda zamonaviy hamjamiyatda fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida odil sudlovni amalga oshirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, har tomonlama asosli va qonuniy sud qarorlarini qabul qilish davlat huquqiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari ham aynan sud faoliyatining sifatini oshirishga, sudlarning mustaqilligini mustahkamlashga va sud protsessining ochiqligi, shaffofligi orqali fuqarolarning huquqiy ishonchini kuchaytirishga qaratilgan. Shunday vaziyatda, fuqarolik protsessida ishtirok etadigan mutaxassis va

ekspertlarning roli tobora ortib bormoqda. Chunki ayrim holatlarda sudlar ko'rib chiqayotgan masalalar yuridik bilim bilan emas, balki texnik, iqtisodiy, tibbiy yoki boshqa sohalardagi maxsus bilimlar bilan bog'liq bo'ladi. Bu holatlarda sudya o'zining yuridik bilim doirasidan chiqib, mutaxassis va ekspertlarning ilmiy asoslangan xulosasiga tayanadi. Mutaxassis va ekspertlarning ishtiroki orqali sud jarayonining har tomonlama tekshirilishi, haqiqatning to'liq aniqlanishi, sud qarorining adolatli bo'lishi ta'minlanadi. Shuning uchun mazkur shaxslarning protsessual maqomi, ularning odil sudlovni ta'minlashdagi ishtiroki ilmiy tahlilga loyiq dolzarb mavzulardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 58-moddasiga ko'ra, ekspert — sud tomonidan tayinlanadigan shaxs bo'lib, u maxsus bilim talab qiluvchi masalalar yuzasidan xulosa beradi¹. Ekspertning sud jarayonidagi vazifasi — o'ziga yuklangan savollarga ilmiy asoslangan va xolisona xulosa tayyorlashdan iborat. Mutaxassis esa sudga bevosita yordam beruvchi shaxs sifatida tan olinadi. U sud majlisida qatnashadi, texnik vositalardan foydalanadi, hujjatlarni sharhlaydi yoki ayrim harakatlarni tushuntiradi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 61-moddasiga binoan, dalillarni to'plash, tekshirish va baholashda maslahatlar (tushuntirishlar) berish yo'li bilan ko'maklashish hamda ilmiy-texnika vositalarini qo'llashda yordam berish maqsadida fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan, ishning yakunidan manfaatdor bo'lmagan voyaga etgan shaxs sud majlisida yoki protsessual harakatlarda ishtirok etish uchun sud tomonidan mutaxassis sifatida jalb etilishi mumkin.

U ekspert xulosasini baholamaydi, biroq uni tushuntirib berishi mumkin. Mutaxassis o'z fikrini bildirsa-da, bu fikr ekspert xulosasi darajasida huquqiy ahamiyat kasb etmaydi. Ushbu shaxslarning suddagi maqomi fuqarolik protsessining obyektiv va adolatli yuritilishi, ayniqsa, taraflarning tengligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular sud ishining mohiyatini aniqlashtirish, dalillarni tahlil qilish, turli ixtisoslashtirilgan muammolarni yechish orqali sudga real ko'mak beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi*, 23.01.2018-y., 02/18/FPK/0612-son.

Sud tomonidan qabul qilinadigan har bir qaror qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi lozim. Biroq bu faqat yuridik mezonlar bilan cheklanmaydi. Ayrim holatlarda, sudga ish bilan bog'liq bo'lgan texnik yoki ilmiy masalalarni aniqlash uchun mutaxassis yordami zarur bo'ladi. Masalan: qurilish bo'yicha da'volarda — bino sifati, loyiha hujjatlari, me'yorlarga muvofiqlik masalalarida; tibbiy nizolarda — davolanish sifati, nogironlik sabablari, kasbiy xatoliklar yuzasidan; iqtisodiy nizolarda — hisob-kitoblar, moliyaviy tahlil, zarar miqdorini aniqlash kabi holatlarda². Bunday vaziyatlarda ekspertning xulosasi — sud uchun haqiqatni aniqlash vositasi hisoblanadi. Ekspert xulosasi protsessual hujjat bo'lib, sud uni boshqa dalillar bilan birga baholaydi. Agar ekspert xulosasi asosli, tushunarli va xolis bo'lsa, u holda sud uning asosida qaror chiqarishi mumkin. Shuningdek, ekspertiza natijalari taraflar o'rtasidagi nizoni hal qilishda muhim huquqiy pozitsiyani belgilab beradi. Bu esa ekspert va mutaxassislarning mas'uliyati yuqori bo'lishini talab etadi. Chunki noto'g'ri ekspert xulosasi — taraflardan biri huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin³.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, amaldagi tartib ekspert va mutaxassislar ishtirokini huquqiy jihatdan belgilab bergan bo'lsa-da, ularning faoliyatida quyidagi muammolar mavjud: mutaxassis va ekspertlarning malaka darajasi bir xil emas. Ekspertiza sifati ko'p hollarda ekspertning shaxsiy bilim va tajribasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Sudlar ayrim hollarda bir xil masalada turli ekspertlarga murojaat qilishadi, bu esa qarorlar bir xilligining buzilishiga olib kelishi mumkin. Ekspertiza xulosasining obyektivligi kafolatlanmagan. Ekspertiza muassasalarining mustaqilligi hali to'liq ta'minlanmagan. Ekspertlar javobgarligining noaniqligi masalasida xatolik uchun javobgarlik choralari qonunchilikda aniq belgilab qo'yilmagan.

Xususan, ko'plab xulosalar faqatgina umumiy bayonotlar va faktlar sanab o'tilishi bilan cheklanadi. Natijada sudya ekspert xulosasiga tayanib, muayyan masalaga chuqur echim topa olmaydi. Ayrim holatlarda bir ish yuzasidan turli ekspertlar qarama-qarshi xulosalar beradi. Bu holatda sudning adolatli qaror qabul qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xulosalarda ko'pincha andozaviy iboralar qayta-qayta ishlatiladi, bu esa har bir holatning

² Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda isbotlash va dalillar. Esanova Z.N., Xabibullaev D.Yu., Salimova I.M. 2015.

³ Галинская А.Е. Правовые основы использования специальных знаний в судопроизводстве сторонами и их представителями // Теория и практика судебной экспертизы. 2021. № 3. С. 20-24.

o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinmayotganini ko'rsatadi. Bunday sifatsizlik sabablari ko'pincha ekspertning malaka va bilim darajasining pastligi, tajriba etishmovchiligi yoki ishga yuzaki yondashuvi bilan bog'liq bo'ladi.

Ekspertiza o'tkazuvchi ko'plab muassasalar tegishli vazirlik yoki tashkilotlarga bevosita bo'ysunadi. Bu esa ularning mustaqilligini cheklaydi. Ekspertizani moliyalashtirish sud yoki boshqa taraflar hisobidan amalga oshirilgan holatda, moliyaviy bosim yoki manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin. Bu mustaqillik muammolari natijasida ekspertlar ayrim holatlarda tarafkashlik qilishga yoki xulosalarni sharoitga moslashtirishga majbur bo'lmoqda. Bu esa odil sudlovga jiddiy xavf tug'diradi.

Olim Ramin Gurbanovning fikriga ko'ra, fuqarolik protsessida ekspertning roli dalil bazasining ishonchliligi va obyektivligini ta'minlashda, sud qarorining ilmiy asoslanganligini kuchaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi⁴.

Yuqoridagi tizimli muammolar ekspertiza institutini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Ularni bartaraf etish uchun xorij tajribasining ilg'or takliflarini ilgari surgan holda, ekspert va mutaxassislarni tayyorlash, ularning malakasini tasdiqlash (attestatsiya) tizimini kuchaytirish, ekspertiza muassasalarini institutsional jihatdan mustaqil qilish, hamda ekspert tanlovini sud tizimi tomonidan markazlashgan holda yuritish va shaffof tizim yaratish, shuningdek, ekspertlar uchun aniq javobgarlik choralari belgilash maqsadga muvofiq sanaladi⁵.

Fuqarolik protsessida mutaxassis va ekspertlarning ishtiroki — bu odil sudlovga xizmat qiluvchi vosita bo'lsa-da, ammo ularning faoliyati samarali bo'lishi uchun aniq huquqiy va tashkiliy mexanizmlarga asoslangan bo'lishi zarur. Sudlarning xolisligi va adolatli qarorlar qabul qilishi fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini oshiradi. Shu bois, mutaxassis va ekspertlarning huquqiy maqomini takomillashtirish, ularning javobgarlik va malaka tizimini mustahkamlash, sud protsessining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash orqali odil sudlovga erishish mumkin.

⁴ Ramin Gurbanov. The Role of Expert Evidence in Civil Litigation. GGU Law Digital Commons. 2010.

⁵ Remme Verkerk. Comparative Aspects of Expert Evidence in Civil Litigation.// International Journal of Evidence & Proof. 2019.

Xulosa qiladigan bo'lsak, birinchidan, fuqarolik sud ishlarini yuritishda odil sudlovga erishish uchun nafaqat qonunchilik asosida ish yuritish, balki har bir holatni har tomonlama chuqur va obyektiv o'rganish zarur. Bunda sudya yuridik bilim bilan cheklanib qolmay, muayyan texnik, tibbiy yoki iqtisodiy masalalarda maxsus bilimlarga tayanishga ehtiyoj sezadi. Shu sababdan, fuqarolik protsessida mutaxassis va ekspertlarning ishtiroki sud adolatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq, ekspert sud tomonidan tayinlanadigan shaxs bo'lib, u maxsus bilim talab qiluvchi masalalar bo'yicha xulosa beradi. Mutaxassis esa sud majlisida texnik vositalardan foydalanadi, hujjatlar va holatlar yuzasidan tushuntirishlar beradi. Ularning vazifasi — sudga qaror qabul qilishda ilmiy asoslangan ma'lumotlar taqdim etish orqali yordam ko'rsatishdir. Amaliyotda aynan ekspert xulosasi asosida sud qarori shakllanishi holatlari ko'p uchraydi.

Ikkinchidan, ekspert xulosasining sifatsizligi, noto'g'ri tanlangan mutaxassis yoki ularning etarli malakaga ega emasligi odil sudlovga erishishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu hol sud-huquq tizimida jiddiy oqibatlariga olib keladi. Shu sababli, ekspert va mutaxassislarning protsessual maqomini takomillashtirish, ularning faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani mustahkamlash, ularni tanlashda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Maxsus bilimlar asosida taqdim etiladigan xulosalar faqatgina professional va xolis yondashuv bilan sudga haqiqiy yordam ko'rsata oladi. Xulosa qilib aytganda, ekspertiza va mutaxassislik instituti fuqarolik sud ishlarida odil sudlovning kafolati bo'lib, ularni samarali qo'llash orqali sudlarning xolis va asosli qaror qabul qilishiga erishish mumkin. Bu esa jamiyatda huquqiy ishonch va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литературы/References

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018-y., 02/18/FPK/0612-son.
2. Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda isbotlash va dalillar. Esanova Z.N., Xabibullayev D.Yu., Salimova I.M. 2015.

3. Галинская А.Е. Правовые основы использования специальных знаний в судопроизводстве сторонами и их представителями // Теория и практика судебной экспертизы. 2021. № 3.

4. Ramin Gurbanov. The Role of Expert Evidence in Civil Litigation. GGU Law Digital Commons. 2010.

5. Remme Verkerk. Comparative Aspects of Expert Evidence in Civil Litigation.// International Journal of Evidence & Proof. 2019.